



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING  
BUYRUG‘I**

**Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining 2023-yilgi sovrindorlarini taqdirlash  
to‘g‘risida**

Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining 2023-yilgi sovrindorlarini taqdirlash maqsadida **buyuraman**:

1. Joriy yilning **6-mart** kuni Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining 2023-yilgi sovrindorlari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga tashrifi tashkil etilsin.

2. Tashrif doirasida Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining 2023-yilgi sovrindorlari (28 nafar) Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining esdalik sovg‘alari bilan taqdirlansin.

3. Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining 2023-yilgi sovrindorlarini taqdirlash bilan bog‘liq sarf-xarajatlar smetasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish va ijodkor o‘quvchilar bilan ishlash bo‘limi (U.Xaydarov):

Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining 2023-yilgi sovrindorlari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga tashrifini yuqori saviyada tashkil etsin;

sovrindorlar uchun xarid qilingan tovar va xizmatlarning maqsadli sarflanishi bo‘yicha mas’ul etib belgilansin;

tadbir yakunlari yuzasidan Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasiga 5 kun muddatda hisobotlarni (tovar-moddiy boyliklarini tarqatish qaydnomalari ilova qilingan holda) taqdim etsin.

5. Mazkur buyruqning ilovasiga muvofiq tasdiqlangan sarf-xarajatlar vazirlikning 2023-yil uchun markazlashgan tadbirlarning xarajatlar smetasi doirasida amalga oshirilsin.

6. Davlat xaridlari bo‘limi (Sh.Yeshnazarov) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan sarf-xarajatlar smetasiga asosan davlat xaridlarini belgilangan tartibda amalga oshirsin.

7. Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (J.Shokirov) tuzilgan shartnomalarga muvofiq o‘rnatilgan tartibda to‘lovlar amalga oshirilishini ta’minlasin.

8. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi (L.Rustamova) tadbirni ommaviy axborot vositalari va vazirlikning rasmiy veb-saytida keng yoritish choralarini ko'rsin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari D.Kenjayeov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**



**X. Umarova**

Toshkent sh.,  
2023-yil "21" - fevral,  
31- son